

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARNING TARBIYASIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMIOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNI BELGILOVCHI MEZONLAR TADQIQI

Galdiyeva Mehrbon Durdiyevna
Toshkent davlat texnika universiteti
«Pedagogika va psixologiya» kafedrasи o‘qituvchisi
mehribongaldiyeva5@gmail.com

Annototsiya. Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning tarbiyasiga ta’sir etuvchi ijtimioiy-psixologik xususiyatlarni belgilovchi mezonlar tadqiqi masalalariga bag‘ishlangan. Maqolada milliy tarbiya, ta’lim – tarbiya ishlari samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar shuningdek ma’naviy ahloqiy qadriyatlar, xalqimiz o‘zining tarbiyaga oid ulkan merosi asosida bugungi yosh avlodni insonparvarlik, mehr-muhabbat, oqibat, mehnatsevarlik, yuksak axloq ruhida tarbiyalashga, o‘quvchilarning bilimini oshirishda, milliy tarbiya masalalari tahlil qilingan.

Аннотация: Статья посвящена исследованию критериев, определяющих социально-психологические характеристики, влияющие на воспитание учащихся начальной школы. В статье рассмотрены факторы, влияющие на эффективность народного воспитания, воспитательной и воспитательной работы, а также духовно-нравственные ценности, воспитание современного молодого поколения в духе человеколюбия, любви, следствия, трудолюбия, высокой нравственности, на основу великого образовательного наследия нашего народа, проведен анализ вопросов народного образования.

Abstract: This article is devoted to the research of the criteria determining the socio-psychological characteristics affecting the education of elementary school students. In the article, the factors affecting the effectiveness of national education, education and training work, as well as spiritual and moral values, the education of today's young generation in the spirit of humanity, love, consequence, hard work, and high morals, on the basis of our nation's great educational heritage, the analysis of the issues of national education done.

Kalit so‘zlar: milliy tarbiya, mehr-oqibat, shaxs, milliy qadiriyat, komil inson, ota - ona, yosh avlod, oila, mahalla.

Ключевые слова: национальное воспитание, доброта, личность, национальные ценности, совершенный человек, родители, молодое поколение, семья, сообщество.

Keywords: national upbringing, kindness, personality, national values, perfect person, parents, young generation, family, community.

Bugungi kunda mamlakatimizda milliy tarbiya masalasiga ahamiyat berish alohida o‘rin tutmoqda. Hayotni tarbiyasiz tasavvur etib bo‘lmaganidek, milliy ma’naviyatni uning mag‘zi – dunyoqarashsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Dunyoqarash sog‘lom aql, tafakkur sifatida borliq, voqeа va hodisalar haqidagi qarashlar, g‘oyalar tizimi bo‘lib, bor dunyodagi, jamiyat va ijtimoiy hayotdagi

voqealari anglash, idrok etish, maqsad va yo'nalishlarini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Dunyoqarash odamlarga olam haqida tushuncha beradi. Ularga o'z hayotiy yo'llarini, maqsadlarini aniqlab olishga ko'maklashadi. Eng asosiysi, dunyoqarashda kishilarning moddiy, ma'naviy ehtiyojlari va manfaatlari o'z ifodasini topadi. Bu fikrdan ayonki, inson dunyoqarashi uning iymon-e'tiqodi, ongu-tafakkuri, milliy tarbiyasi, aqliy faoliyati asosida ro'yobga chiqadi.

Boshlang'ich sinf davri eng qiyin davrlardan biri bo'lib, unda tarbiya me'yorlarini o'zlashtirish qiyin kechadi. Aynan mana shu davrda o'quvchilarda milliy tarbiyaning namoyon bo'lishi ko'zga ko'rindi. Agar ularda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va shaxsiy qadr qimmat ota-oni, aka-ukaga bo'lgan muhabbat, hislarini uyg'un holda olib borish tuyg'ulari to'g'ri tarbiyalanib borilsa, ular o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholab, shaxsiy irodaviy kuchlarni o'zgalar manfaatini himoyalashga safarbar etadilar. Shu bois yoshligidanoq axloqiy sifatlar oila bag'rida, mahalla, bog'cha, mакtabda ta'lim tarbiya berish orqali tarkib toptiriladi. Boladagi ushbu sifatlarni shakllantirish uchun dastlab ularning qanchalik darajada tarkib topganligini aniqlab olish zarur. Aynan o'quvchilarda milliy tarbiyani namoyon bo'lishini o'rganish va unga ta'sir etuvchi omillarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni tadqiq qilish bizning tadqiqot vazifamiz hisoblanadi.

Tadqiqotimizda shahar hamda qishloq maktab o'quvchilarining o'g'il va qiz bolalari jalb etildi. Tadqiqotimizda 118 nafar o'g'il bolalar, 108 nafar qiz bolalar, jami 226 nafar respondentlar ishtirok etdi.

Tadqiqot mobaynida J.G.Yo'ldoshev tomonidan taklif etilgan «Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni belgilovchi mezonlari» so'rovnomasidan foydalandik.[1] Olingan natijalarni quyidagi jadvalda umumlashtirildi.

1- jadval

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiyasiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni belgilovchi mezonlari

Ijtimoiy psixologik		Yuqori		O'rta		Past		
		n	%	n	%	n	%	
O'quv fanlarini o'zlashtirish	shahar	134	55	41,5	56	41,7	23	16,8
	qishloq	92	34	37	49	36,5	9	9,7
Yaxshi o'qish	shahar	134	61	56,6	52	38,8	21	15,6
	qishloq	92	38	41	44	47,8	10	10,8
Jamoat topshiriqlarini bajarish	shahar	134	70	52,2	47	35	17	12
	qishloq	92	43	46,7	40	43,5	9	9,7
Kuzatuvchanlik	shahar	134	83	61,9	40	30	11	8,2
	qishloq	92	33	35,8	45	49	14	15,5

Tadqiqotimiz natijalarining ko'rsatishicha, boshlang'ich sinf o'quvchilarining shaxsidagi ijtimoiy psixologik xususiyatlarining eng yuqori ko'rsatkich «kuzatuvchanlik» shkalasiga to'g'ri keldi (61,9%). «Yaxshi o'qish» shkalasi

ko'rsatkichi ham boshqa shaxs xususiyatlari ko'rsatkichiga qaraganda, ancha yuqoriligi kuzatildi (56,6 %). Shuningdek, «jamoat topshirqlarini bajarish» (52,2%), «o'quv fanlarini o'zlashtirish» (41,7%), o'rta darajani ko'rsatdi (2.2.1-rasm).

Yuqorida jadvalda ko'rinib turganidek, o'quv fanlarni o'zlashtirish, o'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqish va qobiliyatini o'stirish har bir o'quvchining individual-psixixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbga yo'naltirish va haetiy maqsadlarini shakllantirish sinf rahbarining alohida vazifasidir. Ayni paytda har bir o'quvchining sog'ligini mustahkamlashga ham e'tibor beradi. Sinf rahbarining diqqat markazida o'quvchilarning darsda o'zlashtirishini ta'minlash masalasi turadi. Buning uchun u har bir o'quvchining kundalik o'zlashtirishida voqif bo'lib turadi. Orqada qolaetganlarga o'z vaqtida, kechiktirmay erdam uyushtiradi.

Qayd etilishicha, bugungi kunda ota-onalarning, boshqa oila a'zolarining bola ta'limida ishtiroki mazkur bolaning maktab dasturini o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir qilishi isbotlangan. O'z navbatida, kelajakda oliy ta'lim muassasasidan o'qishni rejalashtirgan, o'z oldiga «oliy ma'lumotli bo'laman» degan maqsadni qo'ygan o'quvchilarning ham baholari balandroq, bilim darajasi yuqoriq bo'lishi ko'p kuzatilgan.[2]

Shu bilan bir qatorda, turli ijtimoiy-iqtisodiy toifalardagi oilalar va hududlarda ham farzandlarning o'zlashtirish darajasi turlicha bo'lishi kuzatilgan. Aynan shu holatlarda «Oila-mahalla-maktab» hamkorligining vaziyatning ijobiy tomonga o'zgarishiga yordam beradi. Shuningdek, maktablarning oilalar bilan samimiyl munosabati o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlashga ko'maklashadi, ularni muayyan fan yo'nalishlariga qiziqishlarini shakllantirishga zamin yaratadi [3].

Shuningdek, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash, o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlab, ularni mustaqil fikrlashga undash, ta'lim tizimidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlash, o'qituvchilarning o'z faoliyatiga o'zgartirishlar kiritishini ta'minlash, ota-onalarga farzandlarining o'zlashtirish darajasi haqida ma'lumot berish oila va o'qituvchilarning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Millat kelajagi yosh avlod qo'lida bo'lib turgan bir paytda ularning ertangi kuni, ta'lim-tarbiyasiga e'tibor har qachongidanda dolzarb. Bu borada ertamiz egalarining fanlarni o'zlashtirish darajasini bilish, salohiyatini baholash, qiziqishini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.[4]

Maktabda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar tizimi to'g'ri va bevosita sinfda o'zlashtirishni ko'tarishga ta'sir etadi. Sinf rahbari o'quvchilarni hamkorlikda o'qishga ongli munosabatda bo'lishga o'rgatadi. O'quvchilarning o'qishlarini nazorat qiladi, darslarga kiradi, kuzatadi va o'z sinfdagi o'quvchilar bilan birgalikda sinfda o'quv ishlarining sifatini oshirish chora-tadbirlarini belgilaydi. Boshlang'ich sinflarda yuqori o'zlashtirish susaymaydi, aksincha u yana ko'proq ahamiyat kasb etib boradi.

2- jadval

Milliy tarbiyalanganlik mezonlari

Milliy tarbiyalanganlik mezonlari		Yuqori		O'rta		Past		
		n	%	n	%	n	%	
Milliy axloq-odob qoidalariga rioya etish	shahar	134	72	53,8	51	38	11	8,2
	qishloq	92	46	50	43	46,7	3	3,3
Atrofdagilarga axloqiy munosabatda bo'lish	shahar	134	69	51	54	40	11	9
	qishloq	92	43	46,7	47	51	2	2,1
O'z shaxsini hurmat qilish	shahar	134	90	67	39	29	5	3,7
	qishloq	92	49	53,2	42	45,6	1	1
Ijtimoiy axloq mohiyatini anglash	shahar	134	69	51,4	54	40,2	11	8,2
	qishloq	92	44	47,8	44	47,8	4	4,3
Bilimdonlik	shahar	134	55	41	55	41	24	17,9
	qishloq	92	31	33,6	43	46,7	18	19,5
Mehnatsevarlik	shahar	134	75	55,9	55	41	4	2,9
	qishloq	92	48	52	40	43,4	4	4,3

Olib borgan tadqiqotimiz davomida milliy tarbiyalanganlik mezonlari bo'yicha natijalarni tahlil qilishga harakat qildik. Milliy tarbiyalanganlik mezonlari bo'yicha shahar va qishloq umumta'lim maktablari o'quvchilarida «o'z shaxsini hurmat qilish» 67% shahar o'quvchilarida, 53,2% qishloq o'quvchilarida yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan. Xalqimizning azaliy qadrlanadigan shaxs fazilatlaridan «mehnatsevarlik» 55,9% shahar o'quvchilarida, 52% qishloq o'quvchilarida yuqori baholangan. «Milliy ahloq-odob qoidalariga rioya etish» 53,7% shahar o'quvchilarida, 50% qishloq o'quvchilarida yuqori ko'rsatkichlarni qayd etishgan.

Yuqoridagi jadvallarni tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'z ishiga vijdonlilik va estetik zavqlanish xislatlarining yuqori rivojlanganligi ularda mehr-oqibat, tarbiyalanganlikning yuqori rivojlanishiga olib keladi. Kishining ma'naviy, ruhiy etukligi uning tarbiya darajalarini belgilaydi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. J.G'. Yo'ldoshev, Zamonaviy pedagogik texlogiyalarni amaliyatga joriy qilish . Toshkent, 2001.-33-34b.
3. Karimova V.M., Akromova F. Psixologiya. –Toshkent, 2000. -171 b.
4. Farfiyeva K.A. Ommaviy axborot vositalari ta'sirida talabalarda ijtimoiy tasavvurlar shakllanishining o'ziga xosligi. Dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 2005.
4. Innovative technologies in sports and physical education of the younger generation .National education in physical culture education issues Galdiyeva Mehribon Durdiyevna - Buxoro qonferentsiya, 2020